

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **INTELLEKTUAL SHE’RIYATNING XOS BELGILARI**

**Muminova Saodat Aralovna,**  
*Qarshi davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston.  
E-mail:[muminovasaodat1968@gmail.com](mailto:muminovasaodat1968@gmail.com)  
Tel.: +99890-609-36-14*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada intellektual she’riyatga xos belgilar shoir Abdulla Oripov she’rlari misolida tahvilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** intellekt, intellektuallik, falsafa, mushohadakorlik, his-tuyg‘u, idrok.

**Аннотация.** В данной статье особенности интеллектуальной поэзии анализируются на примере стихов поэта Абдуллы Орипова.

**Ключевые слова:** интеллект, интеллектуальность, философия, наблюдение, чувство, восприятие.

**Annotation.** In this article, the characteristics of intellectual poetry are analyzed on the example of poet Abdulla Oripov's poems.

**Key words:** intellect, intellectuality, philosophy, observation, feeling, perception.

Ijodkor shaxs, uning badiiy-estetik dunyosi boshqalardan keskin tafovutlanadi. Chinakam iste’dod egalari olam va uning hodisotlarini o‘zgacha nigoh bilan idrok etadilar, munosabat bildiradilar. Haqiqiy badiiyat mavjud an’analarni buzib, shakllangan qoliplarni inkor etib alohida va takrorlanmas estetik hodisa sifatida paydo bo‘ladi. O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ijodi ana shunday betakror hodisa hisoblanadi. U – noyob intellektual shaxs. “Intellekt (lot. *Intellectus* -aql, idrok, zehn) – keng ma’noda; kishining voqeа-hodisa mohiyatini to‘ laligicha bilishiga asoslangan va u orqali namoyon bo‘ ladigan faoliyati; tor ma’noda: insonning tafakkur, fikr yuritish salohiyatini nazarda tutadi. Intellekt kishilardagi aql, idrok, zakovat, ma’naviy jihatdan yetuklik darajasini ham belgilaydi”.[1.168] Shu ma’noda, Abdulla Oripov she’rlarini kuzatsak, ularda yuksak intellekt yuksak darajada namoyon bo‘ lganligini ko‘ ramiz.

Inson – murakkab zot. Uning ko‘ ngli doimo hurlikka intiladi. Ko‘ngil obidasi muqaddas. Ammo turli tuzumlar, jamiyatlar uning yo‘ liga turli xil g‘oyalar qo‘yadi. Odam jamiyatni va o‘zini baxtli qilaman deb yonib yashaydi. Shu taxlit ma’naviy ehtiyoj shoir falsafiy-intellektual she’riyatining mundarijasini tashkil etadi:

*His etib dunyoning shodligin, g‘amin,  
Ulug‘ bir hikmatga bo‘lganman amin:  
Yaxshi-yu yomonni ko‘tararkan teng,  
Shu bois, ona deb nom olmish zamin.[2.405]*

Dunyo azaliy va abadiy. Uning bag‘ri siru-sinoatlarga boy. Inson umrining ma’nosini anglashga bo‘lgan ehtiyoj tunganmas. Olam va odam munosabatlari

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

murakkab. Dunyo hodisotlarini turfa xil. Uning javharini ziddiyatlar tashkil qiladi. Shu o‘rinda shoirning “Vaqt” nomli she’rini kuzataylik:

*Sen birovga yaxshilik qilsang,  
Qaytishini kutmagil aslo.  
Abadiyat yonida, bilsang,  
Unutilish bordir doimo.  
Vaqt goyoki qilko ‘prik, undan  
Ikki emas, bir o ‘tiladi.  
Seni eslab unutmay yurgan  
Odamlar ham unutiladi. [2.567]*

She’rda Abdulla Oripov uslubiga xos donishmandlik, mukammallikka toyingan jaydarilik, jiddiy fikrni ham hazil libosiga o‘rab ifoda qilishlik bor. Lekin ana shu misralar zimnida hayotning unutilish degan achchiq haqiqati mavjud. Hech narsa abadiy emas. Tug‘ilish o‘lim sari qoyilgan dastlabki qadam ekanligiga ishora bor. Inson umri beshikdan tobutgacha bo‘lgan yo‘l.

*Uchrashdi jahoning ikki zo ‘r piri,  
Ularni qiyndi dunyoning siri.  
Biri yig ‘lab derdi: - uni tushundim,  
Tushunmadim, -deya yig ‘lardi biri.[2.432]*

Dunyoni anglash mushkul. Endi angladim deganda, umr poyoniga yetib qoladi. Olam sirli, odam xudojo‘y. G‘ayb yashash ilmining murakkabligida. Insonga berilgan umr deb atalmish qisqa muddatda muvozanatni saqlash azobli yumush.

Shoirning 2015-yil 15-oktabrda yozgan “Umr daftarlari” deb nomlangan she’rida shunday misralar bor:

*Ko ‘rgingiz kelsa gar baxtli odamni,  
Qayga borardingiz, axir netgaysiz?  
Keling huzuringa, unuting g ‘amni,  
Yayrab o ‘tulgaysiz, mamnun ketgaysiz.*

*Ko ‘rmoqchi bo ‘lsangiz baxtsizni agar,  
Yurmang yiroqlarda, keling men tomon.  
Hasratli umrimning o ‘zi bir daftar,  
O ‘qib, yig ‘lay-yig ‘lay, qaytgaysiz nolon. [2.721]*

Insonning ruhoniylary dunyosi iqlimlari, tiriklik saboqlari, hayot hikmatlarini yashash jarayonida anglab borasiz. Umr manzillarida shoirning baxtli damlari ham, baxtsizlikka duch kelgan paytlari ham ko‘p bo‘lgan. Shoir donishmand sifatida hayot haqiqatiga tik boqa oladi. “Donishmand kishilar, ayrim narsalar ustida o‘z kuzatishlari paytida umumiyl fikrlar va mulohazalarga suyanishga tug ‘ma qobiliyatları bo‘lgan odamlar emas, balki tajriba orqali asl haqiqatga yetishgan kishilar oqil insonlardir”. [3.13] Hayot–murakkab. U ham ba’zan o‘zini baxtli,

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

ba’zan baxtsiz his etishi tayin. Goho mayda tashvishlardan zerikadi, charchoq hissini tuyadi, darddan tanasi, musofirchilikdan ruhi azob chekadi va h.k. Shuning uchun shoirning she’rlarida uning hayoti jamuljam. “O‘qiganimiz ham, o‘qitganimiz ham o‘zimiz. Biz bilan xayrashuvchi ham o‘zimiz, kutib turgan ham o‘zimiz. O‘zimizdan qochib o‘zimizga boramiz. Hayotimiz, fikrimiz ana shu o‘zliklar orasida shakllanadi, o‘zliklar orasida kechadi va sarf bo‘ladi. Biz botindan va zohirdan o‘zimizni izlab yuramiz. Ular orasidagi masofa juda yaqin va juda uzoq, chunki u mendan “men”gacha bo‘lgan bepoyonlikni qamrab oladi”. [4.3]

Xulosa qilib aytganda, intellektual she’rning o‘ziga xosligi umr, hayot hodisalari xususida donishmandona fikr yuritishi hamda fikr va hisning muvoziy holatda bo‘lishidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Фалсафа қомусий луғати. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004.
2. Абдулла Орипов. Таңланган асарлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
4. Назар Эшонқул. Мендан “Мен”гача. – Тошкент: Академнашр, 2014.